



THE DIDACTIC ESSENCE OF THE VIEWS OF EASTERN THINKERS ON THE UPBRINGING OF BOYS

Naimjon Khojiqulov

lecturer

University of Science and Technology

Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: views of eastern thinkers, content of education, education of boys, examples of folk art, socio-cultural, political, economic, religious, ethnic, national and sexual interests, qualities of education, pedagogic-didactic teaching, curriculum, textbook, development of philosophical thinking skills.

Received: 13.03.25

Accepted: 15.03.25

Published: 17.03.25

Abstract: In this article, the content of different views of eastern thinkers on the education of boys, the basis of socio-cultural, political, economic, religious, ethnic, national and sexual interests, the general social task of education, the formation of knowledge, skills, social experience and moral norms in the young generation, the essence of family values, the mentality of the nation, lifestyle and life experience, pedagogue, psychologist, philosopher on the development of examples of folk art, qualities of education the scientific opinions of scientists are presented and analyzed.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'G'IL BOLA TARBIYASIGA OID QARASHLARINING DIDAKTIK MOHIYATI

Naimjon Xojiqulov

o'qituvchi

Fan va texnologiyalar universiteti

O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: sharq mutafakkirlari qarashlari, ta'lim-tarbiya mazmuni, o'g'il bola tarbiyasi, xalq og'zaki ijodi namunalari, ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy, diniy, etnik, milliy va jinsiy manfaatlar, tarbiyaning sifatleri, pedagogik- didaktik o'qitish, o'quv dasturi, darslik, falsafiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Annotatsiya: Mazkur maqolada sharq mutafakkirlarining o'g'il bola tarbiyasiga oid turli qarashlar mazmuni, ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy, diniy, etnik, milliy va jinsiy manfaatlarining asoslanishi, tarbiyaning umumiy ijtimoiy vazifasi, yosh avlodda bilim, ko'nikma, ijtimoiy tajriba va axloq meyorlarini shakllantirish, oilaviy qadriyatlar mohiyati, millatning mentaliteti, turmush tarzi va hayotiy tajribasi, xalq og'zaki ijodi namunalari,

tarbiyaning sifatlarini rivojlantirish bo'yicha pedagog, psixolog, falsafiy olimlarning ilmiy qarashlari keltirilib tahlil qilingan.

ДИДАКТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ВЗГЛЯДОВ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА ВОСПИТАНИЕ МАЛЬЧИКОВ

Наимжон Ходжикулов

преподаватель

Университет науки и технологий

Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: взгляды восточных мыслителей, содержание образования, воспитание мальчиков, образцы народного творчества, социокультурные, политические, экономические, религиозные, этнические, национальные и сексуальные интересы, качество воспитания, педагогико-дидактическое обучение, учебная программа, учебник, развитие навыков философского мышления.

Аннотация: В данной статье рассмотрено содержание различных взглядов восточных мыслителей на воспитание мальчиков, основу социокультурных, политических, экономических, религиозных, этнических, национальных и сексуальных интересов, общую социальную задачу воспитания, формирование знаний, умений, социального опыта и нравственных норм у молодого поколения, сущность семейных ценностей, менталитет нации, образ жизни и жизненный опыт, педагога, психолога, философа на развитие примеров народного творчества, качества воспитания. представлены и проанализированы научные мнения ученых.

KIRISH.

O'g'il bola tarbiyasi jamiyatda, oilada, ta'lim- tarbiya jarayonida ma'naviy va milliy qadriyatlarga asoslangan falsafiy fikrlash majmuyidir. Bunga aksiologik va retrospektiv yondashgan holda mutafakkirlarning falsafiy qarashlariga, xalq og'zaki ijodi namunalariga, hayotiy tajribalariga e'tibor qaratish, milliy hayot yo'lini, kundalik faoliyati va kuzatishlarini umumlashtirilgan qisqa va lo'nda ko'rinishdagi o'z fikrlarini erkin ifoda etish, yangi g'oyalar yaratish va muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi. O'g'il bola tarbiyasi interaktiv tarzda ishlash imkoniyatini belgilovchi qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

O'quvchi yoshlar hayotida ta'lim-tarbiyaning mukammalligi muhim o'rin egallaydi. "O'g'il bola tarbiyasi murakkab jarayon bo'lib, bunda albatta ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy, diniy, etnik, milliy va jinsiy manfaatlar hamda ehtiyojlar nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiq. Shu boisdan ham Sharq – "teotsentrik mintaqasi sifatida, unda dunyo

qurilishida inson bo'ysunadigan transsendent erk turadi va ushbu erkni anglash, uning tamoyillari asosida harakatlanish hayotning asosi hisoblanadi. Shu bilan birga Sharqda ma'naviy qadriyatlar ustuvor, jamiyat esa ma'naviy tamoyillar asosida rivojlanishga asoslangan". Bu jihat o'g'il bola tarbiyasida ham o'z ifodasini topganki, uning ayrim o'ziga xosliklari xususida kontekstli tahlil asosida o'z fikrlarimizni bayon etib o'tamiz.

Agarda masalaga retrospektiv yondashgan holda xalq og'zaki ijodi namunalariga e'tibor qaratsak, har bir xalq, avvalo, o'zining hayotiy tajribalariga tayangan holda milliy hayot yo'lini, kundalik faoliyati va kuzatishlarini umumlashtirilgan qisqa va lo'nda ko'rinishda ifodalangan maqollarni yaratgan. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganilayotgan mavzumiz doirasida etnomanba sifatida o'z vazifasini to'liq o'tay olishga e'tibor qaratgan holda ta'kidlash lozimki, "xalq og'zaki ijodi namunalarida o'g'il bola tarbiyasi, unga tarbiya berish, tarbiyachining sifatleri, huquqlari, tarbiyalanuvchining majburiyatlari, vazifalarini belgilash, o'g'il bolalarni yuksak xulq-atvorli, ularda odamiylik fazilatlarini egallashga chorlash, aynan vujudga kelgan vaziyatdan kelib chiqqan holda, ya'ni ijodiylik yaqqol ifodalangan". Xususan, "Tarbiya taqani to'g'rilaydi" maqolida "chinakam tarbiya bilan "tuzalmas" odamni ham (bunda o'g'il bola nazarda tutilgan, sababi Odamning etnologik jihati Odam Ato bilan, ya'ni birinchi odam nomi bilan bog'liqligini e'tiborga olish zarur – X.N.), jumladan "quloqsiz" o'jar, goj, o'ta sho'x o'g'il bolani ham tuzatib, odobli qilish" [2] mumkinligiga ishora beradi. Shuningdek, maqollarda o'g'il bola tarbiyasiga "gender yondashuv asosidagi munosabat" ham o'z ifodasini topgan. Masalan, ota-bobolarimiz o'g'il bola tarbiyalashda agarda so'zning, pand-nasihatning o'zigina kor qilmaydigan bo'lsa, do'q po'pisa qilish, kerak bo'lsa "qamchini uchini" ko'rsatish ham foydadan xoli bo'lmaydi deya hisoblab, "Payg'ambarda ham ozgina po'pisa bo'ladi", degan fikrni ilgari surishgan. Demak, o'g'il bola tarbiyasida juda yumshoqlik ham, o'ta qattqlik ham hamisha kutilgan natija bermasligini e'tiborga olgan holda xalqimiz o'z yaratgan maishiy falsafasida "meyori"ni bilish, ya'ni masalaning gnoseologik jihatiga ham e'tibor qaratishgan. Shu boisdan ham "Bolani so'kaversang beti qotar. Uraversang eti qotar", "Otasi qilsa zo'rlikni, Bolasi ko'rar xo'rlikni" [3] deya o'g'il bola tarbiyasiga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashish lozimligini uqtirishgan.

Xalq og'zaki ijodi namunalari o'zining aniq maqsadga yo'naltirilganligi va mavzularining xilma-xil bo'lishi bilan ajralib tursada, biroq ularda o'g'il bolalar ta'lim-tarbiya ayri holda, ya'ni ta'lim va tarbiya shaklida emas, balki yaxlit tarzda keltirilmagan. Bu o'ziga xoslikni milliy falsafamizning tarkibiy xossalari deb ko'rsatsak mubolag'a bo'lmaydi. Bu mavzu ta'lim-tarbiya tarixiga taalluqli bo'lsada, bugungi ta'lim tizimini rivojlantirish uchun amaliy mazmun kasb etadi. Negaki birlamchi, ya'ni fundamental asosni-tarbiya tarixini, uning tarkibiy qismlarini

bilmasdan turib, tarbiyani rivojlantirish, tarbiyaning istiqboldagi vazifalari haqida fikr yuritib bo'lmaydi.

Markaziy Osiyo xalqlarining «Alpomish», «Kuntug'mish», «Go'ro'g'li», «Oysuluv», «Tohir va Zuhra», «Yusuf va Zulayho», «Manas», «Qizjibek», «Qozi Kurpesh Bayan suluv» kabi dostonlarida ham o'g'il bolalarni tarbiyalash, ularni oila qurishga tayyorlash, shuningdek, kasbiy va shaxsiy sifatlarini shakllantirish masalalari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, bunda o'g'il bolalarning "jismoniy qobiliyatlariga alohida ahamiyat berilgan. Yigitning jismoniy qobiliyati sinab ko'rilgan. Masalan, kuyovga munosib yoki nomunosib ekanligini aniqlash uchun o'zaro ot poygasi, kamondan nishonga urish, uzoqqa o'q uzish, kurash tushish kabi bellashuvlar o'tkazilgan"[4]. Bu kabi bellashuvlarning o'tkazilishi o'g'il Bolani yanada chidamli va sabr- toqatli, kurashuvchan bo'lishga undaydi, jismoniy sog'lom bo'lishiga ko'mak beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da ham o'g'il bola tarbiyasiga oid qimmatli fikrlar bayon etilgan. Jumladan, ota-onalarning o'g'il farzandlarga munosabati, ularning burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi g'oyatda qimmatli fikrlar bugunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu xususida B.M.Ubaydullayeva "O'zbek xalqi yosh avlod tarbiyasida o'z modeliga ega bo'lib, mazkur model asrlar davomida shakllantirilgan va uchta asosiy negiz – xalq amaliy tajribalari e'tiqodiy (zardushtiylik va Islom) hamda nazariy-falsafiy (O'rta Osiyo mutafakkirlari va jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or g'oyalari) negizga ega" degan fikrni ilgari suradi. Ilmiy jamoatchilik uchun ma'lum bo'lgan "Avesto"dagi: "Ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amaln timer, bu yerda va har yerda ulug'lanadi va ulug'langusi, madh etaman. O'zim ham jonu dilim bilan yaxshilikka intilaman" [5] degan falsafiy mulohazada ham o'g'il bola tarbiyasida niyat, so'z va ish birligiga amal qilish muhimligi uqtirilgan holda, "har bir ayol yo er o'zi durust va yaxshi deb bilgan narsasiga amal qilishlari va boshqalarni ham ogohlantirishlari hamda ular ham o'sha narsalarga amal qilishlari kerak"ligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotchi N.M.Koshanovanning yozishicha, "zardo'shtiylikda bola tarbiyasi masalasiga ona qornidayoq e'tibor qaratilgan bo'lib, jumladan, ayol qornidagi go'dak to'rt oy o'n kunlikda vujudiga ruh ungan deyilgan" va "o'g'il bolalarga ta'lim va tarbiya berish quyidagi tvrzda amalga oshirilgan, degan mulohazani ilgari suradi: - diniy-axloqiy tarbiya; - jismoniy tarbiya; - o'qish va yozishga o'rgatish".

"Avesto"da o'g'il bolalar tarbiyasi bilan shug'ullangan "ilk din o'rganuvchi toliblar (ya'ni o'g'il bolalar - X.N.) va ilk ta'lim beruvchi murabbiylar (ya'ni ota-onalar – X.N.), Ashah(– Haqiqatni feruz aylagan er va ayol ashavanlarning jon, din, bo'y, ruh va fravashiy(larini

olqishlayman”[6] deya ko’rsatib o’tilgan. Demak, o’z farzandini to’g’ri tarbiya qilib voyaga yetkazgan ota-onalar zardo’shtiylikda ulug’lanib, “abadiy qonun” yoki “qonun va tartib”ga, ya’ni ashavanga muvofiq mukofotlanishi aytilib, farzand tarbiyasiga mas’uliyat qarash kerakligi axloqiy meyor sifatida ko’rsatib o’tilgan. Tadqiqotchi N.M.Koshanova fikricha, Zardushtiylikda o’g’il bola tarbiyasida otaning roliga alohida e’tibor qaratilgani, bunda oila boshlig’i sifatida ota – “birinchi navbatda oilaviy tarbiyada nasihat berish, keyin esa o’z farzandlariga ta’lim berish majburiy vazifasi hisoblangan. Avesto matnlarida o’g’ilning burchiga quyidagilar kirishi belgilangan: - yaxshi va aqlli do’stlar topish; - o’g’irlik qilmaslik; - doimo rostgo’y bo’lish; - o’z ishi va so’ziga javobgar bo’lishi” [7] ta’kidlangan. Bu esa o’g’il bola tarbiyasiga nisbatan nazariy yondashuvlar genezis ko’p ming yillik genezisga ega ekanligini belgilaydi. Tadqiqotchi J.SH.Elmuturotov, Ch.A.Azimovalar “Hikmat ilmi Misrda shakllangan, falsafasi - Hindistonda, amaliyoti – Markaziy Osiyoda” degan qarashlarda ham asos bor deb hisoblaymiz” deya qayd etishgan.

Sharq mutaffakkirlaridan Konfutsiy (xitoycha 孔子 Кун-цзы) Xitoy falsafasining tamal toshini qo’yishi bilan birga konfutsiylik ta’limoti asoschisi va siyosiy arbobi, shuningdek “Millatning buyuk O’qituvchisi” sifatida, uning ta’limoti Sharq xalqlari dunyoqarashi va tafakkuriga kuchli ta’sir ko’rsatgani falsafa tarixiga doir manbalardan ma’lum [8]. Tadqiqotchi N.R.Ismatullayeva “Konfutsiy ijodi bilan qiziqishimizning o’sib borishi bu uning ta’limotidagi tarbiyaga doir qarashlarning hozirgi davrda ham o’z dolzarbligini yo’qotmaganligi tufaylidir”[9] deya o’z munosabatini bildiradi. Konfutsiychilikda o’g’il bolani tarbiyalashning axloqiy mezonlariga asosiy e’tibor qaratilib, bunda uni “komil inson”, “insonparvarlik”, “burch” va “farzandlik ehtiromi” singari konseptlar o’ziga xos tarzda ifodalangan. Jumladan, Konfutsiy fikricha, “Olijanob inson yeb-ichganda to’yishni, makon istaganda qo’laylikni ko’zlamasligi kerak. Mehnatda chaqqon va uddaburon, so’zlaganda hushyor bo’lishi darkor. Axloqli kishilardan ibrat olib, o’zining kamchiliklarini tuzatish yaxshi ta’lim-tarbiya olganlikdan darak beradi” deya o’g’il bolalarda vatanparvarlik va mehnatsevarlik, shuningdek axloqiy sifatlarni tarbiyalashdek muhim masalalariga funksional jihatdan yondashadi. Konfutsiy o’g’il bolalarda mavjud bo’lishi lozim bo’lgan axloqiy sifatlarni shakllantirish masalasiga e’tiborini qaratib, buning uchun “Yoshlar uyda ota-onasini, aka-ukalarini so’zsiz e’zozlashi, ostona hatlab ko’chaga chiqqach esa yoru do’st va kattalarning hurmat-izzatini joyiga qo’yishi, ishga mas’uliyat, sinchkovlik bilan ehtiyotkorona yondashmog’i, bergan so’zida qat’iy turmog’i, xalqni cheksiz sevmog’i hamda insonparvar kishilarga yaqinlashmog’i darkor. Bularni amalga oshirgach, yana quvvati qolsa, uni kitoblardagi bilimlarni egallashga sarf etishi mumkin”ligini ta’kidlaydi. Konfutsiy o’g’il bola tarbiyasida oila institutining rolini alohida urg’ulab,

“tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri, jamiyat negizi sifatida “oila bu – vatan, oila bu – davlat, ota esa hukmdor, davlat boshlig‘i” deya qarab, “ota-onaga munosabat davlatga munosabatni ifodalash”ini, falsafiy nuqtai nazardan bu model jamiyat va davlatning protokonfutsian, ya’ni davlatchilik mohiyati anglashning konfutsiycha ilk modeli deb baholash mumkin. Demak, Konfutsiy falsafasining o‘ziga xos xususiyati sifatida, uning “doimo ta’lim-tarbiyaga e’tibor qaratgani va axloqiy sohani takomillashtirishga intilganini” ko‘rsatib o‘tish mumkin.

XULOSA.

O‘g‘il bola tarbiyasida ota- ona, mahalla, ta’lim va tarbiyaning mujassam holda ijobiy ko‘rsatkichli ta’siri ulardagi chiqamlilikni insoniylikni oshiradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida esa o‘g‘il bolaning axloqiy xususiyatlariga e’tibor qaratish, ularni qadriyatli-kasbiy, ta’limiy- ijodiy yondashuvlarini, ijtimoiy-kreativ ko‘nikmalarini o‘stirish imkonini beradi. Sharq mutafakkirlari iymon, ilm va amal birligini tarkib toptirishga alohida e’tibor qaratganlar. Ular o‘g‘il bolani tarbiyalashda “shaxs iste’dodi, aqliy-fikriy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga harakat qilganlar. Ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beruvchi mutafakkirlar qarashi tahliliy va tanqidiy o‘rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi. imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Инатов А.И. Таълимнинг номутахассислик йўналишларида информатика ўқитувчиси касбий-ижодий компетентлигини инновацион ғоя ва технологиялар асосида шакллантириш жиҳатлари / Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дис. – Термиз, 2023. – Б. 20-21. (151 б.)
2. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. –Тошкент, 1990. – Б. 385. (-582 б.)
3. Исматуллаева Н.Р. Конфуций ҳикматларида “комил инсон” тушунчаси талқини // Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations. VOLUME 1 | SPECIAL ISSUE 1 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5.423. – Б. 513-519
4. Конфуций. Сухбат ва мулоҳазалар / Хитой тилидан М.Махмутходжаев ва Н.Исматуллаева таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – Б. 21. (-272
5. Конфуций. Ҳикматлар / О.Жўраев ва К.Жўраевлар таржимаси. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010. – Б. 9. (164 б.)
6. Рахмонов Д.А. Ўзбекистонда ижтимоий хизмат тизимини ривожлантиришнинг этномаданий хусусиятлари / Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дис. – Тошкент, 2019. – Б. 42-43. (147 б.)

7. Кошанова Н.М. Авесто халқ педагогикасининг қадимий манбаси сифатида // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 5 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-5-830-837 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1. – Б. 830-837.
8. Фалсафа тарихи (Шарк фалсафаси).-Тошкент: JAHON PRINT, 2013. - 532 б.;
9. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. –Тошкент, 1990. – Б. 385. (-582 б.)
10. Конфуций. Ҳикматлар / О.Жўраев ва К.Жўраевлар таржимаси. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010. – Б. 8-9. (164 б.)
11. Элмуротов Ж.Ш., Азимова Ч.А. ҚАДИМГИ ШАРҚ ВА АНТИК ДАВР ФАЛСАФАСИНИНГ ЎЗАРО ФАРҚ ҚИЛУВЧИ ВА ЎХШАШ ЖИҲАТЛАРИ // Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 5 | 2023 ISSN: 2181-1385 ISI: 0,967 | Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,9 | ASI: 1,3 | SJIF: 5,771 | UIF: 6,1. – Б. 699-677.
12. Холиқова М. Дунё миллий тарбия тизимлари тарихидан: Конфуцийлик / <https://api.moiti.uz/media/book>